

TA'LIMDA MOTIVATSIYA: O'QUVCHILAR FAOLIYATIGA PSIXOLOGIK TA'SIR

Dadaqo'ziyeva Gulbahor Elmurodjon qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

Ilmiy maslahatchi: Yulchiyeva Dilfuza

O'zDJTU, o'qituvchi

Anotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim tizimidagi motivatsiyaning ahamiyati, uning o'quvchilarning psixologik holatiga va o'quv faoliyatiga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilinadi. Motivatsiyaning turlari, ularni shakllantirish usullari hamda o'qituvchining roli yoritiladi. Shuningdek, samarali motivatsiya orqali o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirish, bilim olish jarayonida faollikni kuchaytirish yo'llari ko'rib chiqiladi. Ta'lim tizimida motivatsiyani o'rni juda ham muhim ro'l o'ynagani bois, har doim pedagoglar tomondan olib borilayotgan darslar davomida talaba va o'quvchilarni yanada kuchliroq harakat qilishga undash uchun ham motivlik san'atlari, aynan murabbiylar tomonidan amalga oshiriladi.

Kalit so'zlar: motivatsiya, pedagog, motivlik san'ati, o'quvchilar faoliyati, psixologik ta'sir, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, ta'lim.

Abstract: This article analyzes the importance of motivation in the education system and its impact on students' psychological state and learning activities. It highlights the types of motivation, methods of developing them, and the role of the teacher. The article also explores ways to increase students' interest in lessons and enhance their activity in the learning process through effective motivation. Also, motivation plays a very important role in the education system. During lessons conducted by educators, various motivational techniques are used by teachers to encourage students to be more active and hardworking. The art of motivation is primarily implemented by mentors in the learning process.

Keywords: motivation, educator, art of motivation, motivation, student activity, psychological impact, intrinsic motivation, extrinsic motivation, education.

Kirish:

Zamonaviy ta'lim jarayonida faqat bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, o'quvchilarni o'qishga undovchi psixologik omillarni ham hisobga olish muhimdir. Ana shunday omillardan biri — motivatsiya. Motivatsiya — bu o'quvchining o'z oldiga maqsad qo'yib, uni amalga oshirish uchun ichki yoki tashqi omillar ta'sirida harakatga kirishishidir. Ta'limda samarali motivatsiya tizimini yaratish orqali o'quvchilarni faol, mustaqil va ongli ravishda o'qishga jalb etish mumkin.

Motivatsiya – bu odamni faoliyatga undovchi ichki va tashqi omillarning yig'indisidir. Ta'limda motivatsiya o'quvchilarni o'qishga undovchi kuch bo'lib, o'qish jarayonidagi muvaffaqiyatlar va xatoliklar ko'pincha o'quvchining motivatsiyasiga bog'liqdir. Motivatsiyani ikki turga bo'lish mumkin: Ichki motivatsiya – o'quvchining o'qishdan o'zi shaxsiy qoniqish olish istagi. Tashqi motivatsiya – o'quvchining o'qishdagi muvaffaqiyatlaridan tashqi mukofotlar (baholar, mukofotlar) orqali rag'batlanishi.

Motivatsion o'quv muhitini yaratish – o'quvchilarda ichki motivatsiyani oshiruvchi muhit yaratish, muvaffaqiyatni nishonlash va o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish demakdir.

O'quv motivatsiyasi –bu o'quvchilarning ta'lim jarayoniga bo'lgan qiziqishi, ishtiyoqi va faoliyatini belgilovchi psixologik jihatdir. Maktab o'quvchilarida o'quv motivatsiyasini oshirish uchun bir qator psixologik xususiyatlar va yondashuvlar mavjud:

1. Shaxsiy qiziqish: O'quvchilarning shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlari inobatga olinishi zarur. O'quvchilarni qiziqtiradigan mavzularni tanlash, ularning o'z fikrlarini bildirish imkoniyatini berish muhimdir.

2. Ma'naviy-madaniy muhit: O'quvchilarning ijtimoiy muhiti, ya'ni oila, do'stlar va o'qituvchilar bilan aloqalari motivatsiyani oshirishda katta rol o'ynaydi. Ijobiy muhit yaratish, hamkorlikka asoslangan ta'lim usullarini qo'llash foydalidir.

Shu o'rinda aytish joizki, motivatsiyaning o'qituvchi va o'quvchilarga o'zaro ta'siri mavjuddir:

Motivatsiyaning o'quvchilarga psixologik ta'siri shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning darsdagi ishtiroki, mustaqil ishlashga tayyorligi, fikrlash faolligi, o'ziga bo'lgan ishonchi va psixologik barqarorligiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Yuqori motivatsiyaga ega bo'lgan o'quvchilar qiyinchiliklardan qo'rqmaydi, xatolarni rivojlanish uchun imkon deb qabul qiladi. Past motivatsiya esa o'quvchida tushkunlik, o'ziga ishonchsizlik, darsga nisbatan loqaydlik kabi holatlarga olib keladi.

Motivatsiyani shakllantirishda o'qituvchining roli esa, o'qituvchi — o'quvchilarni ruhlantiruvchi asosiy shaxsdir. Quyidagi yondashuvlar orqali o'qituvchi o'quvchilarda barqaror motivatsiyani shakllantirishi mumkin:

- a) o'quvchining individual xususiyatlarini inobatga olish
- b) Rag'batlantiruvchi metodlardan foydalanish
- c) darslarni qiziqarli va interfaol tashkil etish
- d) muvaffaqiyatga erishgan o'quvchini omma oldida maqtash
- e) psixologik qo'llab-quvvatlash

Bundan tashqari o'qitish jarayonida amaliy tavsiyalar ham katta ahamiyatga ega. Ular o'quvchilarga real va aniq maqsadlar qo'yishni o'rgatish, mustaqil fikrlashga undovchi topshiriqlar berish, tanqiddan ko'ra ko'proq

rag'batlantirish, hamda do'stona, psixologik qulay muhit yaratishda yordam beradi.

O'ylaymanki, har qanday pedagog o'z o'rgatish metodikasini egallayotgan jarayonida bola psixologiyasini o'rganish va uni ba'zi bir xolatlarda tushuna olishligini ham bilishi kerak.

Bundan tashqari, motivlar ehtiyoj sababli yuzaga keladi, rivojlanadi va shakllanadi. Shu bilan birga, motivlar nisbatan mustaqil ta'sir kuchiga ega bo'ladi. Ehtiyojlar motivlarning kuchi va barqarorligini belgilaydi. Turli insonlar bir xil ehtiyoj mavjud bo'lsada, turli motivga ega bo'lishlari mumkin. Inson xulq-atvori va faoliyati motivlari o'ziga xos va o'zgaruvchan bo'ladi. Ularning rivoji insonning atrofidagi olam, tarbiyaviy maqsadga intilish ta'sir kuchiga bog'liq. Ehtiyoj va motivlar bog'liqligi inson faoliyatini amalga oshirishdagi xulq-atvori bilan ifodalanadi. Masalan, kasbiy faoliyatga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)dan foydalangan holda tayyorlash masalasining o'rganilishi shuni ko'rsatdiki, an'anaviy mashg'ulotlarga nisbatan bunday zamonaviy yangi texnologiyalar talabalarda o'qishga qiziqish motivlarini yanada kuchliroq shakllantirishga sabab bo'lganini ko'rsatdi. Shunday qilib, motivlash – insonda muayyan motivlarni uyg'otish yo'li bilan uni muayyan harakatlarni qilishga undash maqsadida shu insonga ta'sir o'tkazish jarayonidir.

Shu o'rinda, barcha jabhalarda motivatsiyaning o'rni juda ham muhim u insonni ruhan kamol topishida, hamda ruhan sog'lom bo'lishida katta ahamiyatga ega.

Taklif va tavsiyalar

1. Ta'lim jarayonida ichki motivatsiyani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

2. O'quvchilar uchun qiziqarli va maqsadga yo'naltirilgan mashg'ulotlar tashkil etish zarur.

3. Pedagoglar motivatsion treninglar va seminarlar orqali o'z malakasini oshirishi kerak.

4. Rag'batlantirish tizimini ishlab chiqishda o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish lozim

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, pedagogikada o'z-o'zini boshqarish va motivatsiya ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi. O'z-o'zini boshqarish qobiliyatini rivojlantirish, o'quvchilarning mustaqil ishlash qobiliyatini oshiradi, ularning o'z faoliyatini rejalashtirish va boshqarish ko'nikmalarini shakllantiradi. Motivatsiya esa, o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularga muvaffaqiyatga erishish uchun kuch beradi. Pedagoglar o'quvchilarda o'z-o'zini boshqarish va motivatsiyani rivojlantirish uchun turli pedagogik metodlarni qo'llashlari zarur, chunki bu jarayonlar o'quvchilarning shaxsiy va akademik muvaffaqiyatlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, motivatsiya o'quv faoliyatining samaradorligini belgilovchi muhim psixologik omil bo'lib o'qituvchi tomonidan yaratilgan qulay muhit va to'g'ri yondashuv orqali o'quvchilarda yuqori darajadagi ichki

motivatsiyani shakllantirish mumkin. Bu esa nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki o'quvchining shaxs sifatida kamol topishiga zamin yaratadi.

References:

1. (Maktab o'quvchilarida o'quv motivatsiyasini oshirishning psixologik xususiyatlari) [Sayyora Rajabova](#) 2024
2. (YOSHLAR TA'LIM JARAYONIDA MOTIVATSIYANING ROLI VA AHAMIYATI) Zulhaydarova Feruza 2025
4. MURODOVA, M. F., SATTOROVA, F., & JUMAYEVA, Z. M. (2025). BOLALAR MEHRIBONLIK UYLARIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN TA'LIM VA TARBIYA JARAYONLARI. *SHOKH LIBRARY*.
5. O'ZBEKISTONDA, B. M. RIVOJLANISHI VA UNING AHOLI TURMUSH TARZINING YAXSHILANISHIDAGI AHAMIYATI. Yunusova Zarifaxon Abduvaxobovna Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedras. *M ateriallari*, 132.
3. Rahmiddinova, A. D. (2024). MOTIVATSIYA VA TA'LIM JARAYONI. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, 1(2), 196-201.
6. Ryan, R. M., & Deci, E. L. (2000). Intrinsic and extrinsic motivations: Classic definitions and new directions. *Contemporary educational psychology*, 25(1), 54-67.
7. Schunk, D.H., Pintrich, P.R., & Meece, J.L. (2008). *Motivation in Education: Theory, Research, and Applications*. 3rd ed. – Upper Saddle River, NJ: Pearson/Merrill Prentice Hall.
8. Toxirovich, N. J. (2024). MASOFAVIY TA'LIM JARAYONIDA TALABALARDA MOTIVATSION HISSINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(1), 180-184.
9. Yusupov, A. (2024). PEDAGOGIKA FANINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR. *Современные подходы и новые исследования в современной науке*, 3(8), 34-37.
10. Мухамедова, З. Г. (2020). Оценка показателей надежности электромеханического оборудования специального самоходного подвижного состава. *Илм-фан ва инновацион ривожланиш/Наука и инновационное развитие*, 3(5), 135-140.